

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA QOLIPLASHTIRISHNING SHAKLLANISHI

Mohinur Mo‘min qizi Raxmatilloeva

Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek hamda ingliz tilshunosligida modellashtirish metodi, lingvistikada qoliplashtirish haqidagi fikrlar, ayrim o‘zbek tilidagi sintaktik qoliplar, ingliz tilidagi sodda gaplarning sintaktik qoliplaridan foydalanishning ahamiyati hamda tilni o‘qitishda modellarning o‘rni masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Tayanch so‘zlar: modellashtirish, lingvistik modellashtirish, lisoniy sintaktik qolip, sodda gap qoliplari, til o‘rganish usuli.

Qoliplashtirish usuli haqida turli fikrlar, qarashlar mavjud. Masalan, modellashtirish — ilmiy faoliyatning keng tarqalgan shakllaridan biridir. Barcha fanlarda modellashtirilayotgan hodisalar haqida ma’lumot olishda, farazlar va nazariyalarni ishlab chiqishda modeldan foydalaniladi. Modellashtirish soddalashtirish, ideallashtirish va abstraktlashtirish bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi. U manbalardagi ma’lumotlarning reprezentativligini tekshirishda, dalillarning ishonchliligini, farazlar va nazariyalarning haqiqiylikini tekshirish imkonini beradi. Masalan, jamoaning holatini o‘rganish uchun uni modellashtiradigan bo‘lsak, bunda sotsiologiya, huquq, psixologiya hamda jamoaning o‘ziga xosligi omillarini ham e‘tiborga olish talab etiladi. Bu esa o‘z navbatida fanlararo yondashuv uslubining qo‘llanilayotganligini ham anglatadi. Bu jarayonda bir holatni hisobga olish kerakki, boshqa bir fanning modelini to‘g‘ridan to‘g‘ri jalb etish maqsadga muvofiq emas, uni fanining tuzilishi mohiyati nuqtayi nazaridan shakllantirish lozim.¹¹

Shuningdek, biron bir tilni modellashtirishda ham uning barcha imkoniyatlari, holati o‘rganilib ehtimoliy nazariyasi tuziladi. Agar tillar taqqoslanadigan bo‘lsa, ularning mukammal modellaridan foydalanish eng maqbul usul hisoblanadi.

Ushbu metodning yaralishi haqida adabiyotlarda shunday fikrlar mavjud, transformatsion grammatika 1950-yillarda dastlab Z.Harrisning til strukturasidagi transformatsiya xususidagi qarashlari ta’sirida yuzaga kela boshladi, bu yo‘nalish Z.Harrisning shogirdi N.Chomskiy tomonidan rivojlantirildi. Unga ko‘ra, dastlabki yadro strukturalar birikma strukturalar qoidalar tizimi orqali tug‘iladi. Ya’ni har qanday til

¹¹ Ilhomov Ziyovutdin Adxamovich. *Tarix fanining nazariy asoslari* (O‘zbek), 2020 — 111--bet.

grammatikasi yadro strukturalar (kernel structures) yig'indisidir. Yadro gaplar deb sodda, yig'iq, darak gaplar tushuniladi.¹²

Ustozimiz Muhabbat Qurbonova bu usul haqidagi ushbu fikrlarni keltiradilar, Formal-funksional yo'nalishning tadqiq usullari, asosiy tamoyillari bilan tanishib o'tgach, sistemaviy tilshunoslikning eng asosiy tushunchasi - lison(til) – nutq bo'linishining lison va nutq tabiatining bu yo'nalishda qanday talqin etilishi masalasi ustida ham to'xtalib o'tishimiz kerak. Agar bu masalani chetlab o'tsak, formal-funksional yo'nalishning mohiyati to'la ochilmay qoladi. Odatda, tilshunoslik yo'nalishlarini tavsif qilayotganda tilshunoslar sistemaviy tilshunoslikning fundamental masalasini – lison(til) – nutq (ya'ni til va nutqni farqlash) muammosining qanday tushunilishini izohlashdan boshlaydilar.¹³ Biz esa dastlab mazkur yo'nalishning tahlil usullari va tamoyillarini ko'rib o'tib, undan keyingina formal-funksional yo'nalishda lison(til) – nutq farqlanishi (dixotomiyasi)ning izohiga o'tishni ma'qul ko'rdik.¹⁴

Til va nutqni farqlash, shuningdek, lisoniy hamda nutqiy sintaktik qoliplarning farqlanishi turfa tillarda turli xil hodisadir.

Kompyuter lingvistikasi uchun ona tilimizdagi sodda gap modellaridan foydalanish haqidagi fikrlar egasi N.Abdurahmonova ham o'zining "Mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti" monografiyasida ingliz tilidagi ayrim sodda gap qoliplarini ona tilidagi qoliplar bilan taqqoslaydi va quyidagi fikrni bildiradi: O'zbek va ingliz tillar grammatikasining rivojlanishida lingvistik modellashtirish yangilik emas. Ya'ni har ikki tilning tadqiqot tadrijida modellashtirishga oid masalalar nafaqat xorij mutaxassislari, balki o'zbek tilshunoslari va matematik-dasturchilari tomonidan ham izchillik bilan o'rganilgan. Ingliz tilida yadro gaplar sifatida quyidagi konstruksiyalar ajratib ko'rsatiladi:¹⁵

¹²Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi. - Toshkent: Fan, 2008. - B.140-141.

¹³Qurbonova M. Hozirgi zamon o'zbek tili (Sodda gap sintaksisi uchun materiallar). – Toshkent: Universitet,2002. Апресян Ю.Д. Идеи и методы современной структурной лингвистики. -М.: Просвещение, 1966; Основные направления структурализма. (Под ред. Ахмановы). -М., 1965; Неъматов Х, Расулов Р. Узбек тили систем лексикологиясиасослари. -Тошкент 1995.

¹⁴ Неъматов Х-, Бозоров О. Тил ва нутк. -Тошкент: Укитувчи, 1993

¹⁵ Харрис З.С. Совместная встречаемость и трансформация в языковой структуре // Новое в лингвистике. Вып.11.М., 1962. - С.627 - 628.

1.	NV	Noun Verb	Ot fe'l	John came
2.	NVpN	Noun Verb Preposition Noun	Ot fe'l predlogli ot	John looked at Mary
3.	NVN	Noun Verb Noun	Ot fe'l ot	John saw Mary
4.	N is N	Noun is Noun	Ot is ot	John is a teacher
5.	N is p N	Noun is Preposition Noun	Ot is predlogli ot	John is in bed
6.	N is D	Noun is Adverb	Ot is ravish	John is out
7.	NisA	Noun is Adjective	Ot is sifat	John is angry

Qoliplashtirish metodi ayrim tillarga, jumladan, ingliz tiliga faol tatbiq qilingan.

Ingliz, rus tillarida sodda gap qurilishi quyidagicha belgilangan:

S + V + O: S = ega, O = to'ldiruvchi, V = kesim.

Я работаю . Он пишут диссертацию.

I work at school. He is writing a research work.

O'zbek tilida sodda gap qurilishi:

S + O + V: Men she'r yozdim. U she'r yod oldi.

S = ega, O = to'ldiruvchi, V = kesim.

O'zbek tilida qo'shma gapning eng kichik modeli quyidagicha bo'ladi:

S₁+V, S₂ + V₂: Qo'ng'iroq chalindi, dars boshlandi.

T –H so'z birikmasining modeli (tobe – hokim).

Wpm minimal sodda gapning modeli. M: O'qidim. Yozding

N.Chomskiy tavsiya etgan grammatikada gaplarni "tug'dirish" (hosil qilish) uchun o'rin almashtirish qoidalaridan foydalaniladi. Chap qismda gapning struktur komponenti simvollar joylashadi, o'ng qism esa ularning simvollar o'rniga almashuvchilar yoki simvollar zanjiri (birikuvi)dan iborat bo'ladi. Quyidagi jadvalda ingliz tili uchun ayrim gapning struktur komponenti simvollar ko'rsatilgan:

№	Simvollar	Simvollar Birikuvi
1	S - boshlang'ich simvol, u inglizcha «Sentence» («gap») so'zining bosh harfidan olingan.	S = NP + VP
2	VP - kesim guruhining simvoli, u inglizcha «Verb Phrase» birikmasidan olingan.	VP = Verb + NP
3	NP -ega guruhining simvoli, u inglizcha «Noun Phrase» birikmasidan olingan.	NP = Det + N
4	Verb - kesim gap bo'lagining simvoli, u inglizcha «Verb» so'zidan olingan.	V = Aux + V
5	Det - artiklning simvoli, u inglizcha «Determiner» («aniqlagich») so'zidan olingan.	Det = the, a, ...
6	N -ot so'z turkumining simvoli, u inglizcha «Noun» so'zidan olingan.	N = book, computer...
7	Aux - yordamchi (ko'makchi) fe'llarning simvoli, u inglizcha «Auxiliary» so'zidan olingan.	Aux = will, can ...
8	V — fe'l so'z turkumining simvoli, u inglizcha «Verb» so'zidan olingan.	V = see, know ...

Jadvaldagi 5-8-qatorlarda ko'rsatilgan simvollar (Det, N, Aux, V) terminal simvollar deyiladi, chunki ular lug'atdagi aniq so'zlardir. 1-4-qatordagi simvollar esa noterminal simvollar deb ataladi. Gap hosil qilish jarayoni noterminal simvollarini o'ng qismga davomiy o'rin almashtirish asosida yuz beradi. Bunda boshlang'ich simvol S o'ziga mos keluvchi simvollar birikuvi NP hamda VP ga almashtiriladi. So'ng NP va VP simvollar ham, o'z navbatida, Det + N hamda Verb + NP ga almashtiriladi. Bu jarayon barcha simvollar noterminal bo'lguncha davom eta- veradi. Masalan, ingliz tilidagi quyidagi jumlaning bevosita ishtirokchilar modeli asosida tahlil etaylik. Birinchi bosqichda jumla NP va VPga ajratiladi: The old man | saw a black dog there - Keksa odam u yerda qora itni

ko'rdi. Keyingi bosqichda yuqoridagi ajralish, o'z navbatida, yana ikki qism- ga ajratiladi: The || old man \ saw a black dog || there. So'nggi bosqichda jumla bevosita ishtirokchilar modeli asosida «daraxt» («sentence tree») ko'rinishida tasvirlanishi mumkin:¹⁶

Demak, ingliz tilidagi kabi rus tilida ham modellashtirish metodi ildamlagan usullardan biri hisoblanar ekan.

Ingliz tilida yaratilgan bugungi kun tadqiqotlaridan biri olim Hermann Funk maqolasida tilni o'rganish va o'zlashtirishning to'rtta asosiy modelini umumlashtirishga qaratilgan sinfda o'qitish va darsliklarni loyihalashning nazariy asoslari sifatida taklif qilingan va ularning darslik asosidagi til o'rganishga ta'sirini muhokama qilishgan. Quyidagi muhokama uchta mavzuni qamrab oladi til o'rgatish tadqiqoti darajalari nazariy farazlardan prinsip va standartlargacha va nihoyat, sinfda o'qitish dizayniga bevosita ta'sir ko'rsatadigan modellar (Funk, 2010). Ular kabi til o'qitishning turli jihatlarini qamrab oladi, ularni bir biri to'ldiruvchi deb hisoblash mumkin.¹⁷ Jahon tilshunoslari tomonidan til o'rganuvchilar uchun yaratilgan bunday til modellari uni yanada soddalashtiruvchi omil hisoblanib ona tilimizni o'rganish jarayonida ham qator bo'limlarni o'qitishda modellardan foydalanish samarali usul hisoblanadi. Masalan, punktuatsiyani o'qitishda, jumladan, ko'chirma va o'zlashtirma gap orasida ishlatiladigan tinish belgilarini o'zlashtirish jarayonida, shuningdek, oldingi maqolalarimizda ko'rib o'tganimiz kabi ergashgan qo'shma gaplarda bosh gap va ergash gapning o'rnini hamda ularni bog'lovchi vositalarning qo'llanilishini o'zlashtirishda modellardan keng jabhada foydalani ladi.

¹⁶ Abduraxmonova N. Mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti.-T.: Muharir, 2018

Бархударов Л.С. Структура простого предложения английского языка. М.: Высшая школа, 1966. - С.21.

¹⁷ Hermann Funk: Four Models of Language Learning and Acquisition and

Their Methodological Implications for Textbook Design-maqola

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
2. Qurbonova M. Hozirgi zamon o‘zbek tili (Sodda gap sintaksisi uchun materiallar). – Toshkent: Universitet, 2002.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
4. Abduraxmonova N. Mashina tarjimasining lingvistik ta‘minoti. Toshkent: Muharrir, 2008
5. Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari: monografiya .- T.: Nodirabegim, 2020;
6. Бархударов Л.С. Структура простого предложения английского языка. М.: Высшая школа, 1966.
7. Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi. - Toshkent: Fan, 2008.
8. Неъматов Х-, Бозоров О. Тил ва нутқ. -Тошкент: Укитувчи, 1993
9. Харрис З.С. Совместная встречаемость и трансформация в языковой структуре // Новое в лингвистике. Вып.11.М., 1962.
10. Hermann Funk: Four Models of Language Learning and Acquisition and Their Methodological Implications for Textbook Design -maqola
11. Ilhomov Ziyovutdin Adxamovich. Tarix fanining nazariy asoslari (O'zbek), 2020
12. Natlib.diss.uz
13. [en.wikipedia.org. /wiki/history_machine_translation](https://en.wikipedia.org/wiki/history_machine_translation)
14. Ziyouz com.